

SIDQIY XONDAYLIQIY VA UNING “RUSIYA INQILOBI” DOSTONI TALQINI

Mahbuba Baxtiyorovna Tursunova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Bu maqolada Sidqiy Xondayliqiy shaxsiyati va uning “Rusiya inqilobi” dostonida aks etgan davr voqeliklarining ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’siri haqida yaqindan tanishasiz.

Kalit so’zlar: Shoir shaxsiyati, jadid adabiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayot, lirika, oshiqona she’rlar, hajviyot, doston, janrlar, ”Rusiya inqilobi”, badiiylik, reallik, shakl va mazmun.

ABSTRACT

In this article, you will get acquainted with the personality of Siddiqiy Khandaylik and the impact of the events of the period reflected in his epic “Russian Revolution” on socio-political life.

Keywords: Poet's personality, modern literature, socio-political life, lyrics, romantic poems, humor, epic, genres, "Russian Revolution", artistry, reality, form and content.

KIRISH

Jadidchilik davri adabiyotida o’zining ulkan o’rniga ega bo’lgan ijodkorlardan biri bo’lgan Sidqiy Xondayliqiy tabiatan to’g’riso’z, xushchaqchaq va o’tkir zehni shaxs bo’lgan. Sidqiy 20-asr boshi o’zbek adabiyotining iste’dodli vakillaridan bo’lib, uning ijodiy merosi rang-barang an’anaviy she’riyatimizni yangi o’zbek poeziyasi bilan o’ziga xos bir tarzda bog’laydi. U bir tomondan “Devoni Sidqiy”dagi g’azallari bilan mumtoz she’riyatimizdagi ishq va go’zallik haqidagi azaliy va abadiy bahsni davom ettirsa, ikkinchi tomondan, zamonasining shiddatli hodisalari izidan borib, mardikorlik voqealari, 1917-yilning Fevral voqealari (Rusiya inqilobi) haqida dostonlar yozadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shoirning ijodiy merosi rang-barang va o’ziga xos. Unda Tamim, Imom A’zam kabi sahobalar, tarixiy shaxslar haqida bitilgan qiziqarli qissalardan tortib, ayrim zamondoshlarning hajviy



qiyofalari mahorat bilan aks etilgan voqeyiy hikoyalargacha mavjud. Bundan tashqari Sidqiy tarjimonlik sohasida ham mohirona qalam tebratgan. “Ming bir kecha”, “Qozi va o’g’ri” singari folklor namunalari va “Rahimo” tarjimai “Karimo” singari yozma adabiyot namunalari tarjimoni hisoblanadi.

Sidqiy Xodayliqiy mashaqqatli hayot yo’li, ijodi va shaxsiyati haqida ko’plab zamondoshlari bilan bir qatorda atoqli adibimiz Oybek o’zining “Ulu’g’ yo’l” romanida uni quyidagicha ta’riflaydi. “Shoir Sidqiy maxsum Iskandardan: kamba’gal oilada tu’g’ilib o’sgan, qattiqchilikda qiynalib o’qigan, keyin madrasaga joylashgan. Ko’p zorlik bilan madrasani tugatgan, Iskandarga qaytmasdan shaharda yashab qolgan. Nazmda xiyla tuzuk, kalomi o’tkir, pishiq, hozirjavob shoir edi. O’rta bo’yi, muloyim ifodali, yuzlari burushiq, faqirona kiyingan, xush fe’l, xush muomala kishi edi.

Sirojiddin Sidqiy 1884-yilda tu’g’ilgan. Otasi Mirzohid oxund “oxund” deb nomlanishidan o’qimishli kishilardan bo’lgan. Shoir o’z tarjimai holi haqidagi ma’lumotlarda otasining kamba’galroq, bechoraholroq bo’lganligini ma’lum qilgan.

Barchamizga juda yaxshi ma’lumki, bu davr ijtimoiy-siyosiy hayoti o’ta og’ir va ziddiyatli edi. Rossiya imperiyasi hukmronligi, birinchi jahon urushining frontdagi va front ortidagi shaxslarga nechog’lik ta’sir ko’rsatganligi siz-u bizga sir emas. Mana shunday tahlikali davrda yana bir siyosiy kuch bor ediki, ular jamiyatdagi barcha masalalarga bevosita ta’sir eta olar va hech bir shaxs taqdiri, millat ertasi ularni befarq qoldirmas edi. Bunday vatanparvar, millatparvar insonlar JADIDLAR edi.

Jadidchilik Turkistonda 19-asrning oxirida maydonga kelgan va 20-asrning boshlarida shakllanib, qisqa muddatda yuqori po’ganaga ko’tarilgan ijtimoiy-siyosiy hodisa ekanligi barchamizga ma’lum. Jadidchilik ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan. Mazkur davrda yuzaga chiqqan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy ishlarning hech biri jadidlar e’tibori va ta’sir doirasidan chetda qolmagan. Buning asosini esa mavjud mafkurani o’z vaqtida va to’g’ri anglay olgan, yurt uchun nafaqat molini balki jonini ham ayamaydigan haqiqiy yurt farzandlari, ziyolilari tashkil etishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo’ja Behbudiy, Siddiqiy- Ajziy, Abdulla Avloniy, Sirojiddin Sidqiy Xodayliqiy, Muhammadsharif So’fizoda, Miskin, Xislat, Tavallo kabi jonkuyar ziyoli qatlam vakillari xalqni ma’naviyatli, bilimli qilishga jon-jahdlari bilan intilishdilar. Usuli jadid maktablarini ochishib, bolalarni bepul o’qitishdi. O’quvchilar uchun darsliklar yozib, joiz bo’lsa, xalq farzandlarini o’z farzandlaridanda ziyoda ko’rishdi. Yoshlarni Germaniyada o’qib tahsil olishlari uchun muruvvatpesha insonlar qo’llaridan kelgancha moddiy ko’mak berishdi, yuragida vatanga

bo'lgan sadoqat va muhabbat jo'sh urgan aholi qatlami hattoki tilanchilik qilishganiga tarix guvohlik beradi. Jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan biri Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiydir.

Bugun biz alohida to'xtalmoqchi bo'lgan va idrokimiz yetgancha talqin qilishga kirishgan asar Sidqiyning "Rusiya inqilobi" dostonidir. Ushbu doston 1917-yilgi fevrl inqilobi va uning sabab va oqibatlarini o'z ichida mujassam etgan ijtimoiy-siyosiy asardir. Dostonda nafaqat Rossiya hukumatidagi o'zgarishlar hamda unga qaram davlatlar, shu jamladan, o'zbeklar hayotidagi keskin burilishlar, sodda xalqning ishonuvchanligi, ochlik va xorlik iztiroblari juda ta'sirli yoritilgan. Doston hajmi salmoqli 48 betdan iborat bo'lib, 1502 satrni tashkil qiladi. Shundan 72 satri "Guftori andar hamishagii "Sho'royi islomiya..." bobi (30-32-betlar) fors-tojik tilida yozilgan. Asarning asosiy matni (1430 satr) o'zbek tilida yozilgan.

Doston muqaddima va xulosa (Ittifoq zmoni) dan tashqari hajmi turlicha bo'lgan 13 bobdan tashkil topgan. Muqaddima va xulosa ham dostonidagi boblarga bevosita ulanib ketgan. Shu sababdan ularni ham boblar qatoriga kiritish mumkin. Shoir inqilob voqealarini kunma-kun berib boradi. "Banogoh boshlandi" deb ta'riflaydi. Asar 23-fevral inqilobning birinchi kunidan boshlanadi. Ijodkor g'alayonga kelgan elning ahvolini, xatti-harakatlarini ham atroflicha ta'riflaydi. Mamalakatni larzaga keltirgan ochlik va vayronagarchiliklar natijasida xalq qo'zg'alonlari ham boshlandi.

Muqaddimada shunday misralar ham mavjud:

Ki eski hukumat zamoni aro
Yo'q erdi bu xil jur'at etmak mango
Alar aslida jur'at etsam agar,
Yopar erdilar turmag'a sarbasar.
Churutqoy edilar vujudim bale,
Uzulg'oy erdi toru pudum bale.

Dostonning birinchi bobidayoq shoir xalqni birlikka, fidoiylikka, qadni baland tutishga, bilagida kuchi bormi? aqli-shuuri bormi? uni vaqtida kerakli ishlarga sarflash kerakligiga undaydi. Bu borada misol qilib Firdavsiy va uning nomini butun dunyoga tanitgan "Shohnoma" asariga yuzlanadi.

Mana qoldi Firdavsiydan yodgor,
Go'zal nomi alhol erur barqaror.
Aning nazmi ila shohoni Ajam,
El og'zida go'yo tirik hali ham.

Yuqoridagi jumlar orqali shoir insondan uning insonligini bildiruvchi, yaxshi nomi, ezgu ishlari bilan insonlar qalbida mangu tirik qoluvchi shaxs bo'lish lozimligini takidlaydi.

“Maqbul qurbonlar” bobida shoir Rossiya ozodlik kurashi tarixiga nazar tashlaydi. Bu kurashning uzoqdan boshlanganiga va u hamma zamonlarda shiddatli to'qnashuvlar, hayot-mamot janglari asosida borganligiga alohida e'tibor beradi.

Hurriyat olinmadi qurbonlarsizin,

Ki tarixlarning so'zidur chunin,

Ushbu jumladan ko'rinib turibdiki, ijodkor inqilob natijasida Rossiya siyosatida tub o'zgarishlar bo'lishiga va bu esa turkistonliklar hayotiga ham yangilik, mazmun olib kirishiga astoydil ishongan. Tarixga nazar solib, hurriyatga qurbonlarsiz ega bo'linmaydi deb mulohaza qilinishidan ko'rinadiki fevral inqilobi mustaqillikka imkon beruvchi yo'l edi. Rus inqilobiy tarixi sahifalarini 1772-yildagi Pugachyov qo'zg'alonidan boshlaydi. Shoir inqilobning sabablarini mustamlakalardagi milliy zulm bilan bo'g'laydi va o'zi juda yaxshi bilgan o'ziga har jihatdan yaqin bo'lgan bo'lgan 1916-yildagi Turkiston voqealarini misol qilib keltiradi. Muallifning fikricha, Turkistondagi qo'zg'alishlarga asosiy sabab –nohaqlik va zulmning kuchayishi bo'ldi. Chor hukumati bu yerda istelochilik, talonchilik siyosatini yuritdi:

Bosib zo'r ila mulku molin olib,

O'zin oqchasidek yonig'a solib.

Dostonning “Maqbul qurbonlar” bobi shuni ko'rsatadiki, Sidqiy chor samoderjaviesining halokatini ijtimoiy asoslardan krlib chiqib kor'rsatishga harakat qiladi. Chunonchi, chor hukumati siyosatining nohaqlik va zulm asosiga qurilganligini asos qilib oladi. So'zining isboti o'laroq, ijtimoiy va ma'naviy hayotdagi “ parda ortidagi ishlar”ni dostonning keyingi “Rasputin ila maxlu”(sobiq podshoh xonimi) bobida alohida to'xtaladi. Bu bobda ijodkor podshoh oilasi, qizlari va ayollaridagi behayolik va boshqalar so'z bilan aytolmaydigan hodisalarni ro'y-rost tasvirlaydi. Rasputin obrazi orqali xotinboz, ikkiyuzlamachi, nomard kishilarni gavalantiradi. U faqatgina aysh –ishrat, ko'ngilxushlik, qimmatli vaqtini ayollar bilan vaqt o'tkazishgagina sarflaydigan, bir so'z bilan aytganda manqurtning “ruscha” variant edi. Ming afsuski, uning qilmishlari bilan bir vaqtda gunohlariga ham sherik bo'ladigan ayollar ham talaygina edi. Hukmdorning nafaqat ayoli, balki qizlari ham unga ishongan yoki nafsiga taslim bo'lishgan edi. Sidqiy bu voqealarni oshkora yozishdan qo'rqmadi, unda kuchli jur'at va iroda borligiga yaqqol dalil bo'la oladi.

Asarning navbatdagi bobida esa serqirra ijodkorimiz din masalalariga ham e'tibor qaratdi. Zamonaviy til bilan aytganda bir jurnalistning “katta odam”bo'lib ketganligi va gazetada turli xil

ko'ngli tusagan voqealarni, gaplarni yozaverishidan zorlanadi adib. Bu "katta odam" N.P.Ostroumov(1846-1930) edi. U 1883-1917-yillarda "Turkiston viloyatining gazetasi" da muharrirlik qilgan. U gazeta orqali insonlarning ruhiyatini, ma'naviyatini egallash mumkinligidan kelib chiqib gazetada dinni tahqirlovchi, qoralovchi g'oyalarni ilgari suradi. Bu borada ijodkor shunday deydi:

Risola aro so'z qilibdur to'lo
Tushungoy eshitsa, ani omi ham,
Anga la'nat aytgay, so'kib dam-badam
So'zi bas, o'rgumchakni toricha sust,

Ushbu jumla orqali uning gazetadiga faoliyati va Islom dinini ochiq-oydin qoralashiga xalqning munosabati aks ettirilgan. Ostroumovning bu ishlarini o'rgimchak to'ri singari ingichka va nozik ekanligi, xalqni omi deb hisoblasa ham uning bu gaplariga qo'shilmas va ishonmas edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Sidqiy Xundayliqiy davr voqeliklarini o'z asarlarida aks ettirishda qalami o'tkir ijodkor edi. U hech narsani yasharmadi, chiroyli qilib tasvirlashga urinmadi, borini boricha gapirishga, yozishga urindi. Sidqiy boshqa yo'lni tanlashi ham va bu yo'lda to'kisroq yashashi ham mumkin edi. Aksincha Sidqiy shaxsiyati bundan yiroq, u haqni aytishga intilgan jasoratli adib edi. Rus bosqini, istelosi davri o'zbek xalqi uchun butun millat uchun juda fojiali va ayanchli edi. Bunday murakkab davrda Sidqiy va uning safdoshlari xalqni o'qimishli qilishga, farovon hayotga erishishi uchun imkon qadar harakat qildi. Yozgan asarlari esa nafaqat o'zining davri uchun balki bugungi 21-asr xalqi, yoshlari uchun ham ibrat maktabi bo'ldi.

REFERENCES

1. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent "Ma'naviyat" 2002
2. Rifktovna, A. D., Ergashevna, K. S. (2022). Narrative strategy as a kind of communication. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(7), 27-30.
3. Aflyatunova, D. R., Kamilova, S. E. (2022). The novel as a literary category. *Independent Kazakhstan: modern educational potential and achievements*, 1(2), 18-22.
4. Рустамова, Н. Б., & Афлятунова, Д. Р. (2022). Интертекстуальность в русской поэзии на основе творчества ФИ Тютчева и АС Пушкина. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 165-170.



5. Афлятунова, Д. Р., Камилова, С. Э. (2022). Специфика творчества сухбата Афлатуни. Theory and analytical aspects of recent research, 2(1), 48-51.
6. Афлятунова, Д. Р., Камилова, С. Э. (2022). Повествовательная стратегия в литературоведении. Suggestions and solutions. 1(2), 223-227.
7. Кобилова, Ш. Х., Сафарова, Ф. А., & Ахророва, Г. У. (2022). Перспективные возможности внедрения инклюзивного образования в жизнь сообщества. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2(10), 441-443.
8. Кобилова, Ш. Х., Икромова, Н. Ф., & Болиева, Н. Т. (2022). Инклюзивное образование и его эффективность в социально-педагогической. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2(10), 438-440.
9. Усаров, Ж. Э., Кобилова, Ш. Х. (2022). Инклюзив таълим ва унинг ижтимоий-педагогик омиллари. Халқаро тажрибалар ва ривожланиш истиқболлари, 1(3), 275-277.
10. Кобилова, Ш. Х., Абдурахимова, Д. (2022). Инклюзив таълимни ташкил этишдаги имкониятлар ва мавжуд муаммолар. Халқаро тажрибалар ва ривожланиш истиқболлари, 1(3), 267-268.
11. Кобилова, Ш. Х., Бобохонова, М. (2022). Кўриш нуқсонига эга шахслар нутқи ва мулоқотининг нутқий бўлмаган воситаларини ривожлантириш усуллари. Образование и наука в XXI веке, 5(24), 579-581.
12. Қодирова, Ф. У., Кобилова, Ш. Х. (2021). Таълим кластери асосида инклюзив таълимга жалб этилган ўқувчилар ҳаёт хавфсизлигини таъминлаш шарт-шароитлари. Муаммо ва уларнинг ечимлари, 2(2), 85-86.
13. Усаров, Ж. Э., Эшнаэв, Н. Ж., Кобилова, Ш. Х. (2021). Педагогик инновацион таълим кластер лойиҳасини амалиётда қўллаш самарадорлиги ва истиқболлари. Педагогик таълим кластери муаммо ва ечимлар, 1(2), 305-313.
14. Қодирова, Ф. У., Кобилова, Ш. Х. (2021). ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРА. Педагогик таълим кластери, 1(1), 109-115.
15. Усаров, Ж. Э., Кобилова, Ш. Х. (2021). Инклюзив таълимнинг назарий ва концептуал масалалари. Фан таълим ва амалиёт интеграцияси, 3(2), 37-45.
16. Усаров, Ж. Э., Кобилова, Ш. Х. (2021). Обеспечение безопасности жизни учеников с органиченными возможностями в процессе инклюзивного образования и его фактори. Журнал научных и прикладных исследований, 2(11), 19-21.
17. Кадирова, О. Х. (2022). Мотивы свободы и одиночества в поэзии Лермонтова и Усмана Насыра. Традиции и инновации в изучении и преподавании языков, 1(1), 173-176.
18. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of Russian-Uzbek literary relations in their historical development. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(12).
19. Kadyrova, O. (2021). Information and communication technologies in the process of teaching foreign languages as the

basis of an innovative approach to learning. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE*
Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 649-651.

20. Kadyrova, O. K. (2021). Motivational basis for the formation of eastern and western literature Мотивационная основа формирования восточной и западной литературы. *Журнал филологических исследований*, 6(3), 17-22.

21. Кадырова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. *Современное образование и воспитание*, 1(1), 289-294.

22. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, 10(01), 227-232.

23. Кадырова, О. Х. (2021). Информационно-коммуникационные технологии в процессе преподавания иностранных языков как основа инновационного подхода к обучению. *Теоретические и прикладные науки*, 101(09), 649-651.

24. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.

25. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. *ПЕРЕВОДЧЕСКИЙ ДИСКУРС: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД*, 1(2), 133-138.

26. Кадырова, О. Х. (2013). Русский язык 5 класс Книга для учителя. *Маънавият*, 1(1), 160.

27. Кадырова, О. Х. (2002). Межлитературные типологические сопоставления в процессе преподавания. *Янги аср авлоди*, 1(1), 96.

28. Кадырова, О. Х. (1995). Методика реализации сопоставительного подхода в профессиональной филологической подготовке студентов-билингвов Узбекистана (русская и родная литература).

29. Кадырова, З. З. (2021). Некоторые комментарии к интерпретации и противопоставлению аспектов терминов перефразирование и перифраз. *Теоретическая и прикладная наука*, 1(6), 486-489.

30. Кадырова, З. З. (2021). Лексические издания в формировании перифраза о первом перифразе в прозе Алишера Навои. *Журнал филологических исследований*, 6(1), 17-23.